# MING VA KO'P XONALI SONLAR KONSENTRIDA NOMERLASHGA O'RGATISHDA KO'RGAZMALILIKDAN VA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Normuminova Sevinch Bekzod qizi** [1]
[1] *Qarshi DU "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi*
*2-kurs iqtidorli guruh talabasi*
**B. Berdiyev** [1]
[1] *Ilmiy rahbar: dots*

**MAQOLA MALUMOTI** **ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**
*Received:17.03.2025*
*Revised: 18.03.2025*
*Accepted:19.03.2025*

*Ushbu ishda ming va ko'p xonali sonlarni konsentrida nomerlashga o'rgatishda ko'rgazmalilik va didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasiga e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qishda o'quvchilarning matematik tushunchalarni tez va samarali egallashiga yordam beruvchi amaliy usullar kiritiladi.*

**KALIT SO'ZLAR:**
*tushuncha, konsentrida, ko'rgazmalilik, raqamlar, predmetlar, nomerlash, bilimlar, mustahkamlash.*

**KIRISH.** O'quvchilarni ming va ko'p xonali sonlar konsentrida nomerlashga o'rgatishda ko'rgazmalilikdan va didaktik o'yinlardan foydalangan holda ularni bilimini oshirish, dars soatlarini qiziqarli o'tkazish, darsga bo'lgan qiziqishlarni ko'paytirish va mustahkamlash

100 ichida sonlarning nomerlarini bilish, sonlar qatoridagi har bir navbatdagi sonning qanday hosil bo'lishini, har bir berilgan son bevosita o'zidan oldin keladigan sondan qancha kattaligini va o'zidan bevosita keyin keladigan sondan qancha kichikligini tushuntirish.

2. Har bir sonning sonlar qatoridagi o'rnini bilish.

3. Raqamlar o'rin qiymatini bilgan holda sonlarni o'qiy va yoza olish.

4. Sonlarning xona tarkiblarini bilganlikdan foydalanib, ikkita sonni ularning sonlar qatoridagi olgan o'rinlari bo‘yicha taqqoslay olish.

5. Sonni uning xona qo‘shiluvchilarining yig‘indisi bilan almashtira olish.

6. Sonlarning natural ketma-ketligi va unli tarkibini birgalik asosida sonlarni qo'shish va ayira olish.

7."Uch xonali son", "uchinchi xona birliklari" terminini bilish, 100 ichida sonlarni nomerlashni o‘rgatishda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarni quyidagilarga o‘rgatishdan iborat:

1. Predmetlarni bittalab, o‘ntalab va yuztalab gruppalarga birlashtirish sanash:

2. 100 ichida sonlarni o‘qish va yozish hamda ularning natural qatorda kelish tartibini belgilash:

3. Sonlarni yuzliklardan, o‘nliklardan va birliklardan hosil qilish.

4. O'ngdan chapga hisoblaganda birliklar, o‘nliklar va yuzliklar qaysi o‘ringa yozilishini aniqlash:

5. Sonni xona qo‘shiluvchilarining yig‘indisi shaklida ifodalash va berilgan sonda istalgan xona birligining umumiy sonini topish.

100 ichida sonlarni og'zaki nomerlashga doir bir necha bosqichga ajratish mumkin.

**Yozma nomerlash**

Ikki xonali sonlarni yozma nomerlash qisman takrorlanib 3 xonali sonlarni yozma nomerlashga o'tiladi. O‘quvchilar sonlar kasridan 0, 3, 4, 10, 20, 70, 95, 200, 500, 900, 999 sonlarni olib necha xonali ekanligini tahlil qiladilar.

Bir xonali: 0, 3, 4,

Ikki xonali: 10, 20, 70, 95

Uch xonali: 100, 200, 500, 900, 999,

Masalan, 597 sonini hosil qilish uchun 500 sonini yozishgan va 40 soni yozilgan 7 soni yozilgan ko'rgazmalar qator qilib doskaga tuzib qo'yiladi va sonlarda nollar berkitilib ustiga 40 soni, bu sondagi nomni berkitib 7 soni qo'yiladi, natijada 547 soni hosil bo‘lishi tushuntiriladi.

Quyidagi mashqlarni bajarish yozma nomerlashga oid bilimlarni mustahkamlaydi.

Xulosa shuki ta'lim jarayonida ko‘rgazmalilik, didaktik o‘yinlar mazmunini va ahamiyati chuqur va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz bu mustaqil ta'limda Ta'lim o‘yin, didaktik topshiriq, o‘yin topshiriqlari, amallarning ketma-ketligi singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini ochib berishga to'xtalib o'tmoqchi bo‘ldik va erishdik.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi.(OO‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Turon-Iqbol”, 2016 yil. 426 b.

2. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (OO‘Y uchun o‘quv qo‘llanma ) Toshkent. “O‘qituvchi”, 2004 yil.

3. Berdiyev B. R., Shodiyev R.D., “Interactive methods of assessment of knowledge on the basis of digital education on the subject "Information technology in education"”. “International Journal Papier Public Review”. Volume-1, Issue-2. Austria. 2020 114-118 p

4. Berdiyev B. R. “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini boshqarishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya “Fan va ta’lim“ Qarshi – 2022 y 33-41 b.

5. Berdiyev B. R. “Matematika o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma “Fan va ta’lim“ Qarshi – 2022 y 77-81 b.

6. Jumayeva M.E "Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish meyodikasidan laboratoriya mashg‘ulotlari" Toshkent "Yangi asr avlodi"